

Toshkent sh.

18.12.2025

ATAMA VA TA'RIFLAR**Aksiya – “OLIMPIYA O‘YINLARI – 2026”**

Aksiya tashkilotchisi – AT “Aloqabank” (“**BARAKA**” savdo belgisi), yuridik manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, O‘qchi ko‘chasi, MFO: 00401, STIR: 200829053 (bundan buyon matnda “**Tashkilotchi**” deb yuritiladi).

Aksiya hamkori – “Visa International Service Association” yuridik shaxsi, joylashgan manzili: Metro Center Boulevard 900, Foster City, Kaliforniya, AQSh (bundan buyon matnda “**Hamkor**” deb yuritiladi).

Aksiya operatori – “SEED AD” MCHJ, yuridik manzil: Qozog‘iston Respublikasi, Olmaota shahri, Rubinshteyn ko‘chasi, 48-uy, BIN: 010240000038 (bundan buyon matnda “**Operator**” deb yuritiladi).

“BARAKA” mobil ilovasi (bundan buyon matnda “**Mobil ilova**” deb yuritiladi) – foydalanuvchiga bank kartasi orqali xizmat ko‘rsatuvchilar foydasiga onlayn rejimda to‘lovlarni amalga oshirish, shuningdek, ilova funksionali doirasida boshqa harakatlarni bajarish imkoniyatini taqdim etuvchi dasturiy mahsulot.

Foydalanuvchi – muomala layoqatiga ega bo‘lgan jismoniy shaxs, O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan va akkreditatsiyadan o‘tgan ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan hamda “Baraka” ijtimoiy kartasi egasi bo‘lgan talaba.

Ishtirokchi – ushbu Qoidalarda ko‘rsatilgan shartlarini bajargan Foydalanuvchi.

Sovrin – 2026-yilda Milan shahrida (Italiya) bo‘lib o‘tadigan Olimpiya o‘yinlariga yo‘llanma (quyidagilarni o‘z ichiga oladi):

sport musobaqalariga chiptalar,

turar joy,

2026-yilgi Olimpiya o‘yinlari doirasidagi tadbirlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirish imkoniyati,

G‘olib va uning bir nafar hamrohi (+1) uchun 4 (to‘rt) kunlik ishtirok etish imkoniyati.

Yutuq o‘yini – Aksiyaning barcha talablarini bajargan Ishtirokchilar orasidan G‘olibni tasodifiy aniqlash tartibi.

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu Qoidalar Tashkilotchining rasmiy hujjati hisoblanadi va Aksiyada ishtirok etuvchi barcha shaxslar tomonidan bajarilishi majburiydir.

1.2. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida “Baraka” ijtimoiy kartasi egasi bo‘lgan OTM talabalari orasida o‘tkaziladi.

1.3. Axborot materiallari, jumladan e‘lonlar, xabarnomalar, tushuntirishlar va boshqa xabarlar quyidagi manbalarda e‘lon qilinadi:

“Baraka” mobil ilovasida;

“BARAKA” rasmiy saytida;

ijtimoiy tarmoqlarda;

Tashkilotchining hamkorlariga tegishli bo'lgan muloqot maydonchalarida.

1.4. Aksiyada ishtirok etish ixtiyoriy hisoblanadi. Ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tish talab qilinmaydi: ushbu shartlarning bajarilishi Foydalanuvchining Qoidalarga rozilik bildirganligi sifatida qabul qilinadi.

1.5. Noto'g'ri ma'lumot taqdim etish, shartlarni buzish yoki tranzaksiyalarni manipulyatsiya qilish harakatlari Aksiyadan avtomatik ravishda chiqarib tashlanishiga olib keladi.

II. AKSIYANI O'TKAZISH TARTIBI

2.1. Aksiya ochiq bo'lib, ushbu Qoidalarga muvofiq o'tkaziladi.

2.2. Aksiyaning boshlanish sanasi – 2025-yil 18-dekabr, tugash sanasi – 2026-yil 10-yanvar.

2.3. Natijalarni sarhisob qilish va Yutuq o'yinini o'tkazish Aksiya yakunlangandan so'ng Tashkilotchi tomonidan **5 (besh) ish kuni** ichida amalga oshiriladi.

2.4. Quyidagi BARCHA shartlarga javob beradigan Foydalanuvchi Aksiya ishtirokchisi bo'la oladi:

a) O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasasi talabasi bo'lishi;

b) "Baraka" ijtimoiy kartasining amaldagi egasi bo'lishi;

c) Aksiya o'tkazilayotgan davrda ijtimoiy karta orqali **600 000 (olti yuz ming) so'm** va undan ortiq miqdorda xaridlar (tovarlar va xizmatlar uchun naqdsiz to'lovlar)ni amalga oshirishi.

2.5. Faqat savdo-xizmat operatsiyalarigina bajarilishi kerak bo'lgan shartlar hisoblanadi. Quyidagilar hisobga olinmaydi:

kartalar o'rtasida pul o'tkazish;

naqd pul yechib olish;

o'z hisoblarini to'ldirish;

tovarlar yoki xizmatlar uchun bo'lmagan to'lov operatsiyalari.

2.6. Foydalanuvchi Aksiyada har oy alohida ishtirok eta oladi: dekabr va yanvar oylarida shartlarni bajarish yana bir bora qatnashish imkoniyatini beradi.

2.7. Barcha talabga javob beruvchi Ishtirokchilar avtomatik ravishda Yutuq o'yini bazasiga kiritiladi.

2.8. Operatsiyalar sonini sun'iy oshirish, xaridlarni soxtalashtirish, uchinchi shaxslar orqali ishtirok etish yoki xavfsizlik mexanizmlarini aylanib o'tishga urinishlar ishtirok etishni rad etilishi uchun asos bo'ladi.

2.9. G'olib www.random.org internet manziliga joylashgan Randomayzer algoritmi yordamida tasodifiy ravishda aniqlanadi.

III. SOVRIN JAMG'ARMASI VA SOVRINNI TAQDIM ETISH TARTIBI

3.1. Sovrin jamg'armasi Tashkilotchining mablag'lari hisobidan shakllantiriladi va faqat Aksiya G'olibiga mo'ljallangan.

3.2. Sovrin ishtirokchining tashabbusi bilan almashtirilishi, qaytarilishi, pul bilan kompensatsiya qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin emas.

3.3. Tashkilotchi G'olibning yashash sharoitlari, chiptalar turi, logistika tafsilotlari va Olimpiya o'yinlaridagi dasturini mustaqil ravishda belgilash huquqini o'zida saqlab qoladi.

3.4. Sovrin G'olibga uning shaxsini, talabalik maqomini va Baraka ijtimoiy kartasi egasi ekanligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etilishi sharti bilan beriladi.

3.5. G'olib Sovrindan voz kechgan yoki undan foydalana olmagan taqdirda, Tashkilotchi takroriy Yutuq o'yinini o'tkazishga yoki Sovrinni berilmagan deb topishga haqli.

IV. AKSIYA ISHTIROKCHISINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Ishtirokchining majburiyatlari:

ushbu Qoidalariga rioya qilish;
ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish;
Tashkilotchining so'roviga binoan talabalik maqomini tasdiqlash;
o'z vaqtida bildirishnomalar olish va Mukofotni rasmiylashtirish uchun Tashkilotchi bilan hamkorlik qilish.

4.2. Ishtirokchining huquqlari:

shartlar bajarilgan taqdirda Aksiyada ishtirok etish;
Aksiya haqida ma'lumot olish;
talab etiladigan harakatlarni bajarmagasdan ishtirok etishdan bosh tortish.

4.3. Ishtirokchi noto'g'ri ma'lumot berishi ortidan kelib chiqadigan oqibatlar hamda uning qurilmasi, aloqa operatori yoki kartani chiqaruvchi bank tarafidagi texnik nosozliklar natijasida yuzaga keladigan barcha xavfini to'liq o'z zimmasiga oladi.

V. TASHKILOTCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Tashkilotchi ushbu Shartlar va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Aksiyani o'tkazishi, aksiya g'olibiga Sovrinni taqdim etishi shart;

5.2. Tashkilotchi ushbu aksiya shartlarini bir tomonlama tartibda o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. O'zgartirishlar bunday ma'lumotlar e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

5.3. Zarurat tug'ilganda Tashkilotchi aksiya bo'yicha ma'lumotlarni va Ishtirokchining aksiya doirasida olingan shaxsga doir ma'lumotlarini davlat organlariga taqdim etish huquqiga ega.

5.4. Tashkilotchi Aksiya ishtirokchilari oldida Aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq xarajatlar (shu jumladan, internet-trafik, telefon qo'ng'iroqlari va boshqa xarajatlar) uchun hech qanday majburiyatni o'z zimmasiga olmaydi.

5.5. Tashkilotchi Aksiya ishtirokchilari oldida, Aksiyaning Qoidalari bilan to'liq tanishib chiqmaslik yoki umuman tanishmaslik natijasida yuzaga keladigan oqibatlar uchun hech qanday majburiyatni o'z zimmasiga olmaydi. Shuningdek, Tashkilotchi texnik nosozliklar (uyali aloqa, internet tarmoqlaridagi nosozliklar va boshqalar) bo'yicha ham ishtirokchilar oldida javobgar bo'lmaydi.

VI. G'OLIBNI ANIQLASH TARTIBI

6.1. G'olib inson aralashuvi omilini istisno qiluvchi tasodifiy sonlar generatori dasturiy vositalaridan foydalangan holda tasodifiy tanlash usuli bilan aniqlanadi.

6.2. Yutuq o'yinini o'tkazish tartibi Tashkilotchi tomonidan ichki hujjat bilan rasmiylashtiriladi.

6.3. G'olib telefon raqami yoki "Baraka" mobil ilovasi orqali xabardor qilinadi.

6.4. Agar 2 (ikki) ish kuni mobaynida G'olib bilan bog'lanish imkoni bo'lmasa, Tashkilotchi qo'shimcha aniqlangan 3 (uch) nafar rezerv ishtirokchi orasidan yangi G'olibni aniqlash huquqiga ega.

VII. QO'SHIMCHA SHARTLAR

7.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i Aksiya Tashkilotchisi tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq belgilangan tartibda to'lanadi.

7.2. Aksiyada ishtirok etish Ishtirokchining Tashkilotchi tomonidan ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida joylashtirilgan ushbu Qoidalarga to'liq va so'zsiz roziligini, shuningdek, ilovada ro'yxatdan o'tishda taqdim etgan shaxsga doir ma'lumotlarining qayta ishlanishiga roziligini bildiradi. Bunday qayta ishlash Ishtirokchining Tashkilotchi tomonidan o'tkaziladigan reklama, marketing va boshqa dasturlar hamda aksiyalarda ishtirok etishi; ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar o'tkazish; marketing, statistik va/yoki boshqa tadqiqotlarni amalga oshirish; tovarlar, ishlar va xizmatlarni targ'ib qilish; Ishtirokchini Tashkilotchi tomonidan taklif etilayotgan yangi mahsulotlar, maxsus takliflar, reklama kampaniyalari, chegirma va bonuslar tizimlari haqida xabardor qilish maqsadida amalga oshiriladi. Ishtirokchi bilan bog'lanish turli aloqa vositalari orqali amalga oshirilishi mumkin, jumladan, lekin shular bilangina cheklanmagan holda: pochta xabarlar, elektron pochta (e-mail) manziliga xabarlar, mobil telefon orqali SMS-xabarnomalar, push-bildirishnomalar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi "Reklama to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida belgilangan reklama ma'lumotlarini o'z ichiga olgan xabarlar. Shaxsga doir ma'lumotlar Tashkilotchi tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi talablarini bajarish maqsadida ham qayta ishlanadi.

7.3. Ishtirokchi yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarga erishish uchun zarur yoki maqsadga muvofiq deb topilgan har qanday harakatlarni o'zining shaxsga doir ma'lumotlariga, o'ziga aloqador boshqa har qanday ma'lumotlarga, jumladan, quyidagi ma'lumotlarga nisbatan amalga oshirishga o'z roziligini beradi: familiyasi, ismi, sharifi; jinsi; tug'ilgan yili, oyi va kuni (O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, jumladan Soliq kodeksida belgilangan hollarda — shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari, jumladan pasport raqami, berilgan sanasi, beruvchi organ nomi hamda ro'yxatdan o'tish ma'lumotlari), shaxsiy identifikatsiya raqami, mobil telefon raqamlari, elektron pochta manzili, bank kartasi raqami, shuningdek, sovrinni olish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar.

7.4. Ishtirokchi "OXUS PAY" AJga ushbu Qoidalarga muvofiq o'z shaxsiga doir ma'lumotlarni qayta ishlashda jalb qilinadigan uchinchi shaxslarni mustaqil ravishda belgilash huquqini beradi va bunday jalb qilish Ishtirokchidan qo'shimcha rozilikni talab

qilmaydi. Shaxsga doir ma'lumotlarning qayta ishlanishi Tashkilotchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga qat'iy muvofiqlikda amalga oshiriladi.

7.5. Ishtirokchi ushbu Qoidalarga rioya qilmagan taqdirda, Tashkilotchi bunday Ishtirokchini Aksiyada ishtirok etishdan bir tomonlama tartibda va so'zsiz chetlatishga haqli. Shu bilan birga, Tashkilotchi ushbu Ishtirokchiga nisbatan amalga oshirilgan harakatlar bo'yicha hech qanday tushuntirish yoki izoh berishga majbur emas.

7.6. Ishtirokchi o'zi haqida noto'g'ri va/yoki ishonchsiz ma'lumotlarni ko'rsatishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha salbiy oqibatlar uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

7.7. Aksiya Tashkilotchisi quyidagi harakatlardan birini amalga oshirgan shaxslarni istalgan vaqtda bir tomonlama tartibda va sabablarini tushuntirmasdan ishtirokchilar safidan chiqarishga haqli:

- Aksiyada ishtirok etish maqsadida soxta operatsiyalarni bir necha bor ro'yxatdan o'tkazishda gumon qilinayotgan shaxslar;
- Firibgarlik harakatlarini sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslar;
- boshqa holatlarda.

7.8. Mobil telefon raqamining muayyan shaxsga tegishliligi yuzasidan nizolar kelib chiqqan taqdirda, Tashkilotchi bunday nizolarga aralashmaydi. Bunday nizolarning barchasi nizolashuvchi tomonlar o'rtasida mustaqil ravishda va o'z hisobidan hal etiladi.

7.9. Mazkur Aksiya doirasida Ishtirokchilar va Tashkilotchi o'rtasida yuzaga keladigan barcha nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi. Agar kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal etish imkoni bo'lmasa, nizolar Tashkilotchi joylashgan joydagi sud organlarida ko'rib chiqiladi (shartnoma bo'yicha sudlovga tegishlilik). Aksiyada ishtirok etish Ishtirokchilarning mazkur shartnoma bo'yicha sudlovga tegishlilikka roziligini anglatadi.